BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI FANIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING SKILLS OF STUDENTS IN BIOLOGY TEACHING METHODOLOGY

Muallif: Ne'matov Azimxon Hamidjonovich [1]
Affiliyatsiya: Qo'qon davlat universiteti, 3-bosqich tayanch doktoranti [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23282328

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va metodik yo'nalishlari tahlil qilingan. Mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim falsafasida talabalardagi avtodidaktik salohiyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, "Biologiya o'qitish metodikasi" fani mazmuni asosida talabalarning axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyati natijalarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, biologiya o'quv fanlarini o'qitishning didaktik asoslari, texnologiyalar, kasbiy-pedagogik faoliyat, pedagogik imkoniyatlar

ABSTRACT

The article analyzes the scientific-theoretical foundations and methodological approaches to developing independent learning skills in higher education students. In modern educational philosophy, independent learning is interpreted as a process intrinsically linked to developing students' autodidactic potential. From this perspective, based on the content of the course "Methods of Teaching Biology," the article highlights opportunities to develop students' skills in independently searching for, analyzing, and generalizing information, finding solutions to problematic situations, making independent decisions, and evaluating the results of their own activities.

Keywords: Independent learning, didactic foundations of teaching biology discipline, technologies, professional pedagogical activity, pedagogical possibilities

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda boyitishi, axborot manbalari bilan samarali ishlashi hamda o'z kasbiy faoliyatini uzluksiz rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy mehnat bozori va kasbiy faoliyat talablari mutaxassisdan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, mavjud muammolarni tahlil qilish, maqbul yechimlarni izlash va o'z faoliyati natijalarini tanqidiy baholash qobiliyatiga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan,

talabalarning mustaqil ta'lim olish koʻnikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim mazmunini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda “Biologiya oʻqitish metodikasi” fani talabalarning nafaqat biologik bilimlarini, balki ularni ta'lim jarayonida qoʻllash, oʻquv-metodik materiallarni mustaqil tahlil qilish, oʻqitish metodlarini tanlash va pedagogik vaziyatlarga mos ravishda qoʻllashga doir kasbiy-metodik koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Jumladan, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning oʻziga xos xususiyatlarini shakllantirishda ularning mustaqil ta'lim olish koʻnikmalarini izchil rivojlantirib borish kasbiy qarorlar qabul qilishi va pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirishini ta'minlaydi.

Pedagog olimlarning fikricha, mustaqil ta'lim — bilimlarni oʻzlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, tushunchalari, koʻnikma va malakalarini hosil qilish boʻyicha oʻquv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir [Mamatkulov S., 2023: 5]. Mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi oʻzbek pedagogikasida turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Pedagog olim B.X. Xodjaev ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kompetensiyaviy yondashuv talabalarda bilimni amaliyot bilan bogʻlash va mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllantiradi [Xodjaev B.X., 2016: 52–55]. Biologiya oʻqitish metodikasi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish talabalarning faol bilish faoliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga oʻrgatish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bogʻlashga asoslanishi lozim [Tolipova J., 2019: 78]. Shu nuqtayi nazardan, biologiyani oʻqitishda axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish har bir talabaning kognitiv faolligini oshirish, tajribaviy bilimlarni mustahkamlash va mustaqil tadqiqot koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarda ATR ta'limni individuallashtirish, interfaollikni kuchaytirish va talabalarning faolligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, R.J. Ishmuxamedov ta'kidlashicha, axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtiradi [Ishmuxamedov R. J., 2019: 115]. Mustaqil ta'limning vazifalari biologiya oʻqitish metodikasida bir necha yoʻnalishda namoyon boʻladi. Birinchidan, u talabalarda mustaqil bilim olish koʻnikmalarini shakllantirishni koʻzda tutadi. Bu koʻnikmalarga manbalar bilan ishlash, biologik ma'lumotlarni tanlash, taqqoslash, umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish kiradi. Ikkinchidan, mustaqil ta'lim talabalarning ijodiy faolligini rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, talabalarda mustaqil ta'lim olish koʻnikmasini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, talabalarni oʻz ustida ishlashga undaydi. Mazkur vaziyatda ta'limda noan’anaviy yondashuvga amal qilish, oʻquv topshiriqlarni bajarishda faol metodlarning qoʻllanib borilishi biz kutgan natijani beradi. Shuningdek, faol metodlarni dars jarayonida qoʻllash bilan chegaralanib qolmay, auditoriyadan tashqari vaziyatlarda oʻquv topshiriqlarni xilma-xillashtirish va bajarish mexanizmida motivatsion yondashuvga asoslanishni talab etiladi. Tadqiqot davomida faol metodlar asosida mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan ishlash metodikasi quyidagicha shakllantirib borildi.

Topshiriq turi “Metodik jadval tuzish”. Faol metod: “Klaster + Aqliy hujum”. Talabalarga “Fotosintez”, “Nafas olish”, “Ekotizim”, “Odamning yurak-qon tomir tizimi” mavzularidan biri tanlash uchun beriladi. Dastlab “Aqliy hujum” orqali mavzu

boʻyicha mavjud bilimlar aniqlanadi. Keyin talaba mustaqil ravishda metodik adabiyotlardan ma'lumot izlaydi va quyidagi mantiqiy zanjirni shakllantiradi:

Mavzu → biologik tushuncha → metod → vosita → oʻquv natijasi.

Masalan: Fotosintez → xlorofill, yorugʻlik, CO_2 → muammoli ta'lim, tajriba → oʻsimlik, rasm, sxema → fotosintez jarayonini tushuntirish va tajriba natijasini tahlil qilish.

Shundan soʻng talabalar jadvallarini guruhda taqqoslaydi va “Eng samarali metodik yechim”ni asoslab beradi.

Mustaqil ta'lim koʻnikmasi: ma'lumotlarni tizimlashtirish, metodik qaror qabul qilish va natijani oldindan belgilash.

Topshiriq turi “Metodik mini-ma'ruza” ishlab chiqish. Faol metod: “Loyiha metodi + Taqdimot + Refleksiya”.

Talaba ekologiya, botanika yoki zoologiya boʻlimlaridan birini tanlaydi va mustaqil manbalar asosida 2-3 betlik mini-ma'ruza tayyorlaydi.

Mini-ma'ruzada quyidagi mantiqiy tuzilma saqlanadi:

1. Muammo: ushbu boʻlimni oʻqitishda qanday qiyinchilik mavjud?
2. Mazmun: boʻlimning oʻziga xos xususiyatlari.
3. Metod: qaysi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq?
4. Amaliy qoʻllash: aniq mavzu misolida metodni koʻrsatish.
5. Kompetensiya: oʻquvchida qanday bilim, koʻnikma va kompetensiyalar shakllanadi?
6. Xulosa: oʻqituvchi uchun metodik tavsiya.

Tayyorlangan mini-ma'ruza guruhda himoya qilinadi. Biologiya oʻqitish metodikasi fanidan mustaqil ta'lim topshiriqlarini faol metodlar asosida tashkil etish talabalarning mustaqil izlanishi, axborotlarni saralash va tahlil qilish, metodik qaror qabul qilish hamda oʻz fikrini asoslash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodik qoʻllanmani tahlil qilish, metodik jadval tuzish, ma'ruza rejasini ishlab chiqish, metodik vaziyatlarni keys-stadi asosida hal etish va mini-ma'ruza tayyorlash kabi topshiriqlarni “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys-stadi”, muammoli ta'lim va loyiha metodlari asosida tashkil etish talabalarni tayyor ma'lumotni oʻzlashtirishga emas, balki uni mustaqil izlash, qayta ishlash, amaliyotga tatbiq etish va xulosa chiqarishga yoʻnaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatkulov S. Mustaqil ta'lim: tadqiqot, xorijiy tajriba va tavsiyalar. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – B. 32.
2. Xodjaev B.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. – T.: 2016. – B. 52–55.
3. Tolipova J. Biologiya oʻqitish metodikasi. – T.: Oʻqituvchi, 2019. – B. 78.
4. Ishmuxamedov R. J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: Fan, 2019. – B. 113–115.